

XALQARO JINOYAT SUDI, XALQARO XUSUSIYATGA EGA BO'LGAN BOSHQA SUDLAR

Quvvatova Kumush Mo'min qizi

Tashkent International university

HQ-1/23 guruh talabasi

E-mail: kumushquvvatova19@gmail.com

Telefon nomer: +998901875204

Ilmiy rahbar: Alisher Temirovich ACHILOV

Tashkent International University

“Huquqiy fanlar” kafedrasi professori v.b.,

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

E-mail: achilov1976@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur ishda Xalqaro jinoyat sudi va xalqaro miqyosdagi boshqa sud institutlarining vakolatlari va faoliyat prinsiplari o'rganilgan. Maqolada xalqaro jinoyat huquqi normalarining ijrosini ta'minlashda ushbu sudlarning roli qiyosiy tahlil etiladi. Davlatlarning suvereniteti va xalqaro yurisdiksiya o'rtasidagi muvozanat masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Rim statuti, Xalqaro jinoyat sudi, gibrid sudlar, universal yurisdiksiya, komplementarlik, insoniyatga qarshi jinoyatlar, harbiy jinoyatlar.*

Аннотация: *В данной работе исследуются полномочия и принципы функционирования Международного уголовного суда и других международных судебных институтов. В статье представлен сравнительный анализ роли этих судов в обеспечении осуществления международного уголовного права. Особое внимание уделяется вопросам баланса между суверенитетом государств и международной юрисдикцией.*

Ключевые слова: *Римский статут, Международный уголовный суд, гибридные суды, универсальная юрисдикция, комплементарность, преступления против человечности, военные преступления.*

Abstract: *This work studies the powers and principles of operation of the International Criminal Court and other international judicial institutions. The article provides a comparative analysis of the role of these courts in ensuring the implementation of international criminal law. Particular attention is paid to the issues of balance between the sovereignty of states and international jurisdiction.*

Keywords: *Rome Statute, International Criminal Court, hybrid courts, universal jurisdiction, complementarity, crimes against humanity, war crimes.*

KIRISH

Insoniyat tarixi davomida sodir etilgan urush jinoyatlari va genotsid harakatlari xalqaro hamjamiyat oldida adolatni ta'minlash masalasini ko'ndalang qilib qo'ydi. Ikkinchi jahon

urushidan keyingi Nyurnberg va Tokio xalqaro harbiy tribunallari "shaxsiy jinoiy javobgarlik" prinsipini xalqaro huquqning uzviy qismiga aylantirdi [1]. Biroq, bu tribunallar muayyan g'oliblar tomonidan mag'lublar ustidan o'tkazilgan sud sifatida tanqid ham qilingan edi. Shundan so'ng, doimiy faoliyat yurituvchi va xolis xalqaro sud organiga ehtiyoj tug'ildi. Bugungi kunda bu ehtiyojni Xalqaro jinoyat sudi (XJS) va turli xalqaro xususiyatga ega sudlar qondirib kelmoqda.

I. ASOSIY QISM:

Xalqaro jinoyat sudi (XJS) 2002 yil Nyu-Yorkda imzolangan Rim nizomi asosida tashkil etilgan xalqaro tuzilma – Xalqaro jinoiy sud (XJS)ning asosiy maqsadi jahon miqyosidagi eng og'ir, jumladan genotsid, insoniyatga qarshi qaratilgan hamda urush jinoyatlarini tergov va sud qilishdir.

XJS tarixi o'tgan asr o'rtalariga taqaladi. Ikkinchi jahon urushi oxirida Nyurnberg va Tokio sudlari faoliyati asosida ilk bor xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash tizimi shakllantirildi. To'g'ri, mazkur muvaqqat sudlar chiqargan hukmlar faqat muayyan davrda amal qilgan.

1998 yil Rimda o'tkazilgan Xalqaro konferensiyada Rim nizomi qabul qilindi va bu hujjat XJS tuzilishida muhim ahamiyat kasb etdi. 2002 yil 1 iyulda maxsus Nizom kuchga kirdi va sud o'z faoliyatini boshladi.

Xalqaro jinoyat sudining asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Jinoyatchilarni jazolash. Turli davlatlardan tushgan shikoyatlar asosida jinoyatchilarni sud qiladi.

2. Tergov olib borish. Sud o'z vakolati doirasida tergov amalga oshirishi mumkin.

3. Adolatni ta'minlash. Jinoyatchilikka qarshi kurashda adolatni ta'minlaydi, jabrlanuvchilar huquqini himoya qiladi.[2]

XJSning eng muhim jihati uning davlatlarning milliy sud tizimini almashtirmasligidir. Rim statutining 17-moddasiga binoan, ish faqatgina davlat tergov o'tkazishni "xohlamasa" (unwilling) yoki "qodir bo'lmasa" (unable) qabul qilinadi [4]. Bu prinsip davlat suverenitetini hurmat qilish va xalqaro aralashuvning oxirgi chora ekanligini anglatadi.

XJS ish yurituvi asosan davlatlar tomonidan taqdim qilingan shikoyatlarga asoslanadi. Hozirgi kunga qadar tuzilma bir necha muhim ishni, xususan Rossiya – Ukraina va Faslatin – Isroil ziddiyatlariga oid jinoyatlarni ko'rib chiqqan.

Kamchiliklar:

-*Siyosiy nizo.* Ba'zi davlatlar ushbu xalqaro tashkilotga kirishdan bosh tortdi yoki tuzilma tarkibidagi, masalan AQSH va Rossiya singari mamlakatlar a'zolicini bekor qildi. Bu holat sudning yuridik kuchi va faoliyati samaradorligini kamaytirdi.

-*Resurs yetishmovchiligi.* Moliyaviy resursi cheklangani sababli, XJS uchun samarali ish olib borish qiyinlashmoqda.

-*Jinoyatchilarni ushlashdagi qiyinchiliklar.* Ko'pincha jinoyatchilar muayyan huquq tizimidan foydalanib, jazodan qochishga muvaffaq bo'lmoqda.

-*Sud jarayoni uzoq cho'zilishi.* Ayrim ishlar juda uzoq davom etishi ortidan jabrlanuvchilar qo'shimcha ruhiy bosim ostida qolyapti.

– *Adolat tushunchasiga nisbatan tafovut.* Turli madaniyatlar o‘rtasidagi farq tufayli adolat tushunchasi har xil talqin qilinishi mumkin.

Aslida Xalqaro jinoiy sud davlatlararo huquq tizimini muvofiqlashtirishda muhim o‘rin egallaydi, dunyo miqyosida og‘ir jinoyatlarga qarshi kurashish uchun zarur va muhim vosita hisoblanadi. Faqat tuzilmaning so‘nggi paytdagi faoliyati tub islohotga muhtojdek, XJS doirasida qat‘iy me‘yorlar o‘rnatilishiga zarurat yetilgandek. Demak, kelgusida sudning samaradorligini oshirib, global adolatni ta‘minlash jarayoniga hissa qo‘shish uchun mamlakatlar va mintaqalar o‘rtasidagi hamkorlik ko‘lamini yanada kengaytirish lozim. Faqat shu tarzda xalqaro jinoyatchilikka munosib qarshi turish mumkin [6].

II. MUAMMOLAR:

Bugungi kunda xalqaro sudlov tizimi bir qator inqirozlarni boshdan kechirmoqda:

1. **Siyosiy lashuv:** Ayrim davlatlar XJSni "G‘arbning quroli" yoki faqat Afrika davlatlariga qarshi qaratilgan institut sifatida ayblaydi.

2. **Ijro etish mexanizmi:** XJSning shaxsiy armiyasi yoki politsiyasi yo‘q. Rim statutining 86-moddasiga ko‘ra, davlatlar gumonlanuvchilarni topshirishda hamkorlik qilishga majbur, biroq amaliyotda bu doim ham bajarilmaydi [5].

3. **Moliyalashtirish:** Murakkab va uzoq davom etuvchi jarayonlar katta mablag‘ talab qiladi, bu esa donor davlatlarning sudga ta’sir o‘tkazish xavfini tug‘diradi.

II. Taklif va tavsiyalar:

Xalqaro jinoiy odil sudlov tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

Xalqaro jinoyat sudi (XJS) faqat milliy sudlar o‘z qolganda ish boshlashini inobatga olib, davlatlar o‘z Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslarini Rim statuti normalari bilan uyg‘unlashtirishi lozim.[3]

- **Tavsiya:** Milliy qonunchilikda "genotsid", "insoniyatga qarshi jinoyatlar" va "harbiy jinoyatlar" tarkibini xalqaro standartlar asosida aniq belgilash va ularga nisbatan da’vo muddati o‘tmasligi (statute of limitations) haqidagi normani kiritish zarur.

Xalqaro jinoyatlar xususiyatidan kelib chiqib, yurisdiksiya doirasini kengaytirish dolzarbdir. Bunda nafaqat a’zo davlatlarda sodir bo‘lgan jinoyatlar, balki a’zo bo‘lmagan davlatlar hududida sodir etilgan, ammo xalqaro xavfsizlikka tahdid soluvchi jinoyatlar ham sudlov doirasiga kiritilishi lozim. Bu borada Rim Statutiga qo‘shimcha protokollar ishlab chiqish, hamda Xalqaro Huquqiy Komissiya tavsiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

XJSning o‘z politsiya kuchiga ega emasligi tizimning eng zaif nuqtasidir.

- **Taklif:** BMT Xavfsizlik Kengashi orqali XJS tomonidan berilgan hibsga olish orderlarini bajarishdan bosh tortgan davlatlarga nisbatan iqtisodiy yoki siyosiy sanksiyalar qo‘llash mexanizmini huquqiy jihatdan mustahkamlash.

XULOSA

Xalqaro jinoyat sudi va xalqaro xususiyatga ega boshqa sudlar insoniyatni "o‘rmon qonunlari"dan xalos etib, "huquq ustuvorligi" sari yetaklovchi institutlardir. Garchi ular o‘z faoliyatida ko‘plab siyosiy va huquqiy to‘siqlarga duch kelsa-da, ularning mavjudligi

dunyo yetakchilari va harbiy qo‘mondonlari uchun "hech bir jinoyat jazosiz qolmaydi" degan ogohlantirish bo‘lib xizmat qiladi. Kelajakda XJS va gibrid sudlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, Rim statutining universalligini ta‘minlash global adolat tizimining barqarorligini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cassese, A. *International Criminal Law*. 3rd edition. — Oxford: Oxford University Press, 2013. — P. 34-38.
2. Werle, G. *Principles of International Criminal Law*. — The Hague: T.M.C. Asser Press, 2005. — P. 112.
3. Gulnoza jumayeva Sodiq qizi Termiz davlat universiteti yuridik fakultetining 1-bosqich talabasi ‘‘Xalqaro jinoyatlarni tergov qilish va sudga tortish tartibi: xalqaro jinoyat sudi tajribasi’’12-18
file:///C:/Users/Администратор/Downloads/NINE-2025-yil-MAY_1-qism-10-19.pdf
4. Schabas, W. A. *The International Criminal Court: A Commentary on the Rome Statute*. — Oxford University Press, 2010. — P. 305-310.
5. *The Legal Nature of Security Council Referrals to the ICC*. // Journal of International Criminal Justice, Vol. 7, 2009. — P. 333-352
6. https://uza.uz/oz/posts/bir-qilich-kerak-ki-tigi-otkir-bolsin_664057